

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DUNYOQARASHINI O‘STIRISH VA O‘QUVCHILARINI O‘Z USTIDA ISHLASH JARAYONI

Keldiyorova Manzura Temur qizi

Termiz davlat pedagogika insituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich 301-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya haqida va Dunyoqarash va har bir inson o‘z ustida ishlash o‘z o‘zini rivojlantirish haqida fikrlar yurutilgan Dunyoqarashga e’tibor qaratilgan va uni shakillantirish yo‘llari haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Dunyoqarash, Zamonaviy pedagogika, O‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, qobiliyat, Tarbiya jarayonida, Tarbiya, Xulq-atvorlar, O‘zoldiga maqsad qo‘yish

Dunyoqarash tabiat ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon boladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o‘mi, mohiyati, hayotiy yo‘nalishini, o‘zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qilish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma’nodosh ekanligini aytish joiz. Dunyoqarash insoniyatni o‘tmish merosi, hozirgi hayot va bundagi sharoitlar, tizimlaminganglab olinganligi, qadriyatdir.

Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud. Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish

va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘lidan borganingizga erishish uchun to‘g‘ri maqsadlar qo‘ying. Agar kerak bo‘lsa, o‘zingizning "men" ingiz haqida savollar berishdan qo‘rqmang. Faqat shu yo‘l bilan siz haqiqatan ham to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qilyapsizmi yoki qattiq o‘z-o‘zini aldashga duch kelganingizni aniqlaysiz.

Har qanday to‘g‘ri belgilangan maqsad unga erishishga yordam beradigan ko‘rsatmalarga ega. Ularga g‘amxo‘rlik qiling va siz albatta kerakli natijaga erishasiz!

Yaxshi motivatsiya bo‘lmasa, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni ko‘p yillar davomida davom etishi mumkin. O‘zingiz uchun haqiqiy rag‘bat bo‘ladigan munosib o‘rnak toping. Misol uchun, sizning xo‘jayiningiz yoki yuqori rahbariyatingiz ajoyib namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shaxsiy o‘zini o‘zi bilish va professional o‘zini o‘zi rivojlantirish

O‘z shaxsiyatingizning barcha nozikliklari va o‘ziga xos xususiyatlari haqida oldindan bilmasangiz, hech qanday rivojlanish bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini bilish shaxsni o‘rganish uchun eng muhim manbadir. Faqat insonning o‘zi tajribasi, hayotiy tanlovi va harakatlariga asoslanib, o‘zi haqida eng aniq tasavvurni shakllantirishga qodir.

Agar inson o‘z qobiliyatini, imkoniyatlarini bilsa, u ularga ishonadi va o‘z ishida ular uchun foydali dastur topadi. Shuningdek, sizga nafaqat obro‘-e‘tibor, daromad, balki zavq keltiradigan sohada yanada takomillashtirish uchun shaxsiy imtiyozlarni, didni aniqlash muhimdir. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim. O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. O‘quvchilar o‘zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar,

Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun o’qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o’zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qayerda bo’lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so’zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo’lmasligi kerak. O’quvchida o’z-o’zini tarbiyalashga, ya’ni, o’z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo’lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin.

Tarbiya jarayonida o’z-o’zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. o’z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi. O’z-o’zini tahlil (nazorat) qilish uchun o’qituvchi o’zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O’z-o’zini baholash mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o’z shaxsiga baho berishga yo’naltirilgan faoliyat metodi.

O’quvchining qobiliyatini o’z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O’z-o’zini baholash qiyin, lekin o’quvchiga bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o’qituvchi irodali bo’lishi, o’z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo’lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o’zini o’rtoqlari, atrofdagilarning ko’zi bilan ko’rish va o’z-o’zini takomillashtirishga intilishi lozim. O’z-o’zini tarbiyalash o’z faoliyatini tahlil qilishdan va o’z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O’z-o’zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O’z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini muhokama qilishga o’rgatadi. O’z-o’zini nazorat qilish uchun o’zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O’z-o’zini baholash o’qituvchiga o’z imkoniyatlarini baholashga, o’zidan qoniqish hosil qilishga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga umumlashtirishga harakat qiladi.

Har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni juda tez va shiddatli rivojlanib kelayotgan zamonda o'z dunyoqarashini va o'z o'zini rivojlantirish va o'zini tarbiyalashga o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Zamon tez rivojlanyapdimi demak yosh avlodni tarbiyasi bilan shug'ullanish ulni tarbiyasi ustida ishlash lozim. Har bir kelajak avlodni tarbiyalar ekanmiz “Bir bolaga yetti mahalla ota ona” degan xalqimizni ajoyib maqol bor. Bola tarbiyasida uning dunyoqarashini rivojlantirishda avvalo atrof muhitidagi insonlarni dunyoqarashi keng bo'lishi zarur. Do'stlari sog'lom fikrga ega bo'lishi kerak va ota ona nazoratida bo'lishi zarur va ko'p kitob mutola qilishi har bir ishini rejalar asosida qilmog'i kerak. Maqsadli bo'lishi kerak har doim maqsadi yo'lida mehnat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. “Umumiy pedagogika” Mamurova.B
2. “Umumiy pedagogika nazaryasi va tarixi” R.Mavlonova,N.Raxmonqulova ,N.Voxidova
3. R.Norqobilova, S.Ibrohimova.”Pedagogical and psychological factors of using the heritage of Asian thinkers in the formation of ecological thinking in primary school science classes”. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Available Online at: <https://www.scholarzest.com> .Vol. 3 No. 06, June 2022. ISSN: 2660-5589
4. R.D.Norqobilova. “Methods of improving the mechanisms of diagnosing the mother language ability of primary class students”. The role of science and innovation in the modern world. 139-143. 2022
5. R.D.Norqobilova. "Methods of Forming Beautiful Writing Skills in Primary School Students". International Journal of Development and Public Policy. |e-ISSN: 2792-3991| www.openaccessjournals.eu| Volume: 1 Issue: 7 181-183.